

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Alisher N avoiy nomidagi

Samarqand Davlat Universiteti

Filologiya (o‘zbek) fakul'teti

Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti kafedrası

KURS ISHI

Mavzu: Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani tahlili

Bajardi: I. Jo‘rayev,

401-guruh talabasi.

Tekshirdi: dots. U.Qobilov

SAMARQAND – 2012 y.

Mavzu: Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani tahlili

Reja

I. Kirish.

a) Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarida ruhiyat tasviri.

II. Asosiy qism:

a) Romandagi Dehqonqul obrazi, psixologiyasi va harakter talqini.

b) Dehqonqul o'zbek xalqining tipik vakili.

s) Yozuvchining obraz yaratish mahorati.

III. Hulosa.

Barchamizga ma'lumki, milliy ruh, o'zbekona bag'rikenglik, mardlik, o'zlikni anglash, millat istiqloli uchun kurash mustaqillak davri adabiyotining bosh mavzusi bo'lgan yedi. Milliy ongini, milliy ruhiyatni, o'zlikni anglatuvchi asarlar yaratgan ijodkorlar orasida Tog'ay Murod o'ziga xos ovozi bilan ajralib

turadi. Uning ijodidagi umumbashariy adabiyotga xos bo'lgan talqinni o'zbek milliy ruhi bilan uyg'unlashtirib, yuborilganini ko'ramiz. Yozuvchi qalamga olgan har bir voqea, obraz orqasida millat taqdiri, oddiy xalq qiyofasi jonlanadi. Biz buning yagona guvohi sifatida uning "Otamdan qolgan dalalar" romanida ko'ramiz. Tog'ay Murod bu romanida o'zbek dehqonining tipik obrazini yaratdi. O'zbek millatining taqdiri, o'tmishi va kelajagi Dehqonqul obrazi timsolida badiiy jonlantirilgan bo'lib, talqinda sodda, baxshiyona uslubning qo'llanishi romandagi obrazlilikni oshiradi va xalq tilining rang-barang nozik qirralarini ochib berishga hizmat qiladi. U bu romanida sobiq sho'rolar tuzumi tomonidan olib borilgan mustamlakachilik siyosatining illatlari milliy ozodlik kurashining parokandalikka uchrashi sabablari, paxta yakkahokimligining oqibatlari, millatning qatag'on qilinishini o'zbek xalqi timsolida ochib beradi. Romandagi o'zbek xalq ining ruhiyat tasviri yozuvchi tomonidan mohirona yoritilib berilgan.

Romanda Tog'ay Murod qahramonlarni zaminni, zilol suvlarni yaratgan yegamning tuhfasi deb suyib ardoqlagan, qadrlagan oddiy odamlar bo'lib, ular har bir qarich erga mehrini beradi, bolasiday avaylab-asraydi, padari-buzrukvori, voliday-muhtaramasi kabi e'zozlaydi.

Romanda tasvirlangan Jamoliddin ketmon ham barcha o'zbeklar qatori ana shunday hususiyatlarga ega. Nazarimizda yozuvchi ana shu yerni, osmonni, suvni va oddiy odamlarni suyib, ham kuyinib tilgan oladi. Millat parokandaligiga sabab bo'luvchi omillarni mantiqan to'g'ri ko'rsatadi.

“Ayrilganni ayiq, bo‘linganni bo‘ri yer” qabilida ish ko‘rib, bir-biriga yordam berishmagan xon-u amrlar Oqqoshshoga qarshi kurashda jipslashmay harakat qilganliklari, o‘zaro nizolarga berilishi oqibatida bir yuz o‘ttiz yillik mustamlaka tamg‘asini xalq peshonasiga bosilishiga sababchi bo‘lib qoladilar.

Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida bir o‘zbek dehqoni sulolasining uch vakili — bobo, ota va o‘g‘il taqdiri timsolida o‘zbek xalq ining istibdod ostida kechgan 130 yillik hayoti badiiy mahorat bilan ochib berilgan. Jamoliddin, Aqrab, Dehqonqul obrazlaridagi umumiylik shundaki, ular shu Ona Yerni sevishadi, uni bo‘lakcha mehr bilan e‘zozlashadi. Olloh bergan rizqini shu zaminda deb biladi. Shuning uchun sidqidildan mehnat qilishib, nasibasini olishadi.

Jamoliddin ketmonning nazarida shu tuproq non kabi aziz, go‘dak singari beg‘ubor, chashma suvidek toza. U “kamina qaytarib-qaytarib, xudoni yodlab-yodlab, hudoga shukrona aytib-aytib ketmon chopadi”.

Uni shu tuproqqa bog‘lagan narsa — mehr, ona zaminga bo‘lgan e‘tiqod. Dalasining bir yashnagani — uning ming yashnagani. U shu dalasiyu, mehnati orqali afsonaga aylanadi: “Jamoliddining ketmoni dalasidan”. Jamoliddin hosildor yerlarga jannatmakon bog‘-rog‘largiga, yurtining turfa hil ma‘dan-u boyliklariga ko‘z tikib kelgan istilochilardan nafratlanadi. Ularning harom ishlaridan hazar qiladi. Ularning qadami yotgan yerdan uzoqroq yurishga harakat qiladi. Istilochilarga qarshi ko‘ksida isyon tug‘iladi. Ularga bo‘lgan nafrat isyon ruhida o‘g‘li Aqrabni o‘stiradi. Ona zaminni e‘zozlaydi. Halol

mehnat qilish, farzandini yurtparvar, erksevar, g'animlariga nisbatan shafqatsiz qilib o'stirish oddiy dehqon Jamoliddin ketmonning hayot mazmuniga aylanadi.

Romanda tasvirlanishicha, Jamoliddining butun, emin-erkin bo'lmagan o'z hayotida qisman bo'lsa-da niyatiga yetadi. O'g'li Aqrab mehnatkash, vatanparvar yigit bo'lib ulg'ayadi.

O'zbek dehqoni sulolasining ikkinchi vakili Aqrab tabiatan otasi Jamoliddinga juda yaqin. U ham ona zaminni suyib, ardoqlaydi. Dalasini mehr bilan parvarish qiladi. Taqdir Jamoliddinning peshonasiga Chor Rossiyasi istilosini bitgan bo'lsa, Aqrab o'zlarini endi "qizillar" deb ataluvchi o'sha istilochilarning ikkinchi bir avlodi bilan yuzma-yuz bo'ladi. Qizi istilochilar oddiy xalqqa "hukumat, yerlar sizniki, butun boylik sizniki, hamma teng huquqli, xalq o'z taqdirini o'zi belgilaydi" deb yolg'on - yashiq va'dalar berib, xalq ning ko'pchilik qismini o'zlarining yo'llariga yurgizishga muvaffaq bo'lishadi. Ammo Aqrab singari imoni butun, e'tiqodli o'zbek yigitlari g'anim niyatini zukkolik bilan anglaydilar.

Aqrab — xalq ning milliy ozodlik kurashida qatnashib, "bosqinchi" nomini olib, el-yurt ozodligi, millat erki uchun shahid bo'lgan vatandoshlarining tipik obrazidir.

O'zbek dehqoni sulolasining uchinchi vakili Dehqonqul taqdiri, uning oilasi, hamkasblari, hamqishloqlari timsolida istibdod tufayli xalq boshiga tushgan fojialar yozuvchi tomonidan kuyunchaklik bilan badiiy talqin qilinadi. Bobosi Jamoliddin dalasini sevardi, uni butun umrini dalasiga bag'ishlaydi,

boshiga tushgan barcha qiyinchiliklarga bardosh beradi. Negaki, uning ko'ksida ruh bor edi, dalalariday cheksiz, poyonsiz yerki bor edi uning. Otasi qo'shgul Aqrab ham dalasini sevardi, u qadagan cho'p nihol bo'lardi. Chunki, uning ham ko'ksida shu yerga, dalasiga nisbatan ulkan mehr bor edi. Aqrabning ko'ksida nafaqat mehr bor edi, o'z dalalariga egalik hissi, dalalari uchun kurash hissi bor edi. Millat taqdiri hal bo'ladigan kunlarda ana shu his Vatan uchun, el-yurt uchun kurash tuyg'usiga aylanadi.

Jamoliddin, Aqrab, Dehqonqul obrazlari orasida juda katta tafovut mavjud, Bular yashyagan davr va zamon ta'siridir. Uchala obraz timsolida o'zbek xalqining yaqin o'tmishi tarixi yaratiladi.

Dehqonqul dalam, deb yashaydi, kuyib-pishadi. Shuning uchun ter to'kadi, zahmat chekadi. Lekin yillar davomida dalasining quliga aylanganinni sezmaydi. Negaki, mustamlakachilik siyosati yuqoridan va chetdan turib shu qadar ustamonlik bilan olib borilar edi. Yuksak va'dalar-u, unvonlarga uchgan xalq "buyuk g'oyalar" yo'lida tinmay mehnat qilardi.

Dehqonqul oilasining turmush tarzi misolida asosiy o'zbek oilalari bo'lmish qishloq atamasining juda past "o'lmasa o'tar" kun - hayot tarzi namoyon bo'ladi. O'zi qancha og'ir mehnat ostida ezilmasin, kimyoviy dorilardan zaharlanmasin, bir umr kamchilik, yetishmovchilik ko'rmasin, jamiyatda huquqsizlik, tengsizlik sezmasin u o'z hayotidan nolimaydi, shu "it yotish – mirza turish" turmushga ko'nib yashaydi. U qishloqdosh o'ziga o'xshagan odamlar orasida kam ham emas, ko'p ham emas. Aksariyat aholi ana

shunday hayot kechiradi. Lekin hech kim “tongdan shomgacha tinimsiz ishlab nega yomon yashaymiz” deb o‘ylaydi. Negaki, “mustamlakachilik faqat mamlakatni g‘arot qilmaydi, undan ham yomonrog‘i odamlarni, xalqni ruhan g‘arot qiladi, shunday qiladiki, qul hayotini kechirayotgan, insonga nomunosib hayot kechirayotgan odamda shu hayotga qarshi norozilik, isyon butkul so‘nadi”.

Mustamlakachilar maqsadi — iloji boricha xalq ni ezish, uni muhtojlikda saqlash, “ozodlik”, “tenglik” deb ataluvchi qullikda asrash uchun uni bir umr qora mehnatga mahkum etishdir. Shu maqsadda O‘zbekistonni Sobiq Ittifoq paxta xom ashyo bazasiga aylantirgan yedi.

Yozuvchi ko‘ksidagi og‘riqni romaniga kiritadi. Bu dard — o‘zbekning dardi, o‘zbeklik dardi. O‘zbek qulday ishlaydi–chidaydi, farzandining boshi og‘ir mehnatdan chiqmaydi–chidaydi, o‘zbek davlatga falon million paxta etkazib beraman, deb chang yutadi, zahar yutadi–chidaydi, shuncha mehnat-u xo‘rlik evaziga “boqimanda” tavqi la‘natini oladi–chidaydi. Romanda go‘yo obrazlar soyasida qolgandek, bir kuchli obraz bor. Bu o‘zbek chidami, o‘zbek chidamining fojiasi.

Yozuvchi “Otamdan qolgan dalalar” romanida o‘zbek dehqonining tipik obrazini yaratadi. Bu bilan Dehqonqul obrazini timsol darajasiga ko‘tarishga muvaffaq bo‘ladi. Dehqonqul uchun yashash mazmuniga aylanadi. Paxta ko‘zga ko‘rinmas kishan bo‘lib, Dehqonqulning qo‘l-oyog‘ini, xohish-irodasini, orzu-umidlarini kishanlaydi.

U o‘zini, erkini paxta ixtiyoriga topshiradi. Mustamlakachilar xalqni yana uzoq yillar davomida o‘z iskanjasida ushlab turish uchun yangi qatag‘on usuli – “o‘zbeklar ishi”ni o‘ylab chiqarganda, pichoq suyakka borib taqalgan yedi. Qishloq kameralaridagi zambillar o‘zbeklarni ne-ne azoblarga solganlarida, xo‘rlaganlarida Dehqonqullarning ko‘zi ochiladi.

Qo‘rquv va hadiksirash ruhida, og‘ir mehnat ostida o‘sgan, bolaligi o‘g‘irlangan Dehqonqul qalbida ham tizginsiz nafrat mujassam. Ma’naviy-ma’rifiy inqirozning yangi davrdagi qurboniga aylangan avlod fojiasi ulardagi shijoatning so‘ldirilishi, itoatkorlikning teranlashuviga borib taqaladi. Itoatkorlikka qo‘rqitish orqali erishiladi. Ziyod Cho‘liboev kabi yoshlar hudbinlik va loqaydlikning qurboni bo‘ladilar. So‘z va ijro birligiga amal qilmaydigan Mavlonov, firqa ishiga sadoqatli bo‘lishga intilgan maktab direktori fizika, jo‘g‘rofiya va adabiyot muallimlari Chingiz Aytmatov ta’kidlagan “manqurt” lashgan: mehr-muruvvatdan, insoniy his-tuyg‘ulardan, o‘y-fikr va andishadan yiroq kimsalardir. Ular hatto g‘amli kunda bir mo‘min o‘z dindoshiga qanday tasalli berish kerakliginida bilishmaydi, balki buni unutishadi, chunki, qo‘rquv ularni vijdonan cho‘ltoq qilib qo‘ygan. Biz buni Dehqonqul obrazida ko‘rib shunday hulosaga kelamiz. Uning xarakteridagi soddalik, kamtarinlik ona-Zaminga bo‘lgan cheksiz muhabbat mustamlakachilar tomonidan qanday oqibatlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun mustamlakachilar ana shunday soddadil insonlarni xo‘rlab, qiynoqlarga duchor qilishga yerishadilar. Xalqimizda “mehmon otangday ulug‘” kabi maqollarning

mavjudligi sababli Dehqonquldek o'zbek mehmonnovozlarni holini yozuvchi buyuk iste'dod bilan yoritib berganki, bunda o'zbek xalq ini o'zi yemay, mehmonga tutgan, "mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan" qabilida ish tutishini ko'ramiz.

Dehqonqul obrazida biz millat tarixini ko'ramiz. Dehqonqul xarakteri o'zbek xalq ida hali-hanuz o'z poydevorini yiqitmagan — mehmondo'stlik, olijanoblik, kamtarinlik, kamsuqumlik, vatanparvarlik, fidoyilik, halollik, mehnatsevarlik va soddadillik kabi hislatlarni ko'ramiz va bunga bevosita asar davomida guvoh bo'lamiz. Asardagi Dehqonqul o'z nomi bilan "dehqonqul", ya'ni yozuvchi Tog'ay Murod shunchalik obraz yaratganki, undagi mahorat tufayli obrazga o'sha ismni qo'ygan. Asarning qahramoni dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Shuning uchun ham u o'z xalq ida, Vatanida bir qarich yerni ham, bir qism tuproqni ham muqaddas biladi. U o'z yurtida hon emas, qulga aylangan shaxsdir. Shuning uchun ham yozuvchi asar qahramonining nomi, ismi bilan ham shunga ishora qiladi. Yozuvchi asar davomida har bir jumla-yu, har bir voqea davomida o'zbek xalq ining o'z yurtida mehnat qilib, "qulday" mehnat qiladi-yu, oqibatda mustamlakachilar tomonidan inson tasavvur qilib bo'lmas vahshiyona azob-uqubatlarni boshidan kechirganligiga ishora qilib o'tadi.

Biz bu hususiyatlarni, mudhish voqealarni Dehqonqul obrazida butun bir o'zbek xalq ining timsolini, aniqrog'i oilasini ko'ramiz. Millat taqdirini, millat hayotini, millat dunyosini ko'rish uchun yozuvchining birgina Dehqonqul obrazida ko'rsatib o'tishi, bu uning asar yaratishda ham obraz yaratishda ham

buyuk mahorat, salohiyat egasi ekanligi amin bo‘lamiz. Yozuvchi birgina asar davomida mustamlakachilar tomonidan olib borilgan qiyinchiliklar, “paxta ishi” deb olib borilgan ishlar ostida o‘zbek xalq ini paxta ishi deb, zaharlanishlari, yoshgina boshiga qaramay, dalaga chiqarib yuborishlari, u yerdagi qiynoqlar, paxtani etishtirish uchun yosh bolalarni paxta dorilashga olib borganliklari, turli kasalliklarning sababchilari bo‘lgan. O‘zbek ayollarining dalada ayol bilan erkakning bir hil ish qiyinchiliklariga ham olib chiqishlari oqibatda ayollarning qasd qilishlari ayrim boshliqlar tomonidan bosdi-bosdi qilib yuborishlari, keyinchalik ishini deb ishni yoqib yuborishlaridek yuztubanliklarigacha borib etgan mustamlakachilar psixologiyasini ham yoritib berishdek ulkan muvaffaqqiyatlarga erishadi. Muallif asariga 150 yildan ortiq bo‘lgan voqealarni, ya’ni XIX asr oxiri va XX asrning so‘ngi choragigacha bo‘lgan hodisalarni yoritib beradi. Shuning uchun ham asar millat tarixini yorituvchi asar deb yozuvchilar tomonidan tan olingan. Ya’ni, B.Sarimsoqov “Millat tarixini yorituvchi eng go‘zal asar” deb baholaganda u benihoya haq edi.

Hulosa qilib aytganda, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani sobiq tuzum tomonidan olib borilgan mustamlakachilik siyosatining dahshatlari, milliy ozodlik, yo‘lidagi kurashlarning parokandalikka yuz tutishlari, paxta yakkahokimliklarining oqibatlari millatning qatag‘on qilinishi o‘zbek xalqining taqdiri misolida ochib berilgan. Bularni ochib berishda yozuvchidan katta mahorat talab qilindi. O‘sha davr qatag‘on avj olgan paytda, hayda-haydalar, firqadan o‘chirishlar, surgunlar, qamalishlarni muallif o‘z ko‘zi

bilan ko'rgan, voqealar jarayonida bevosita ishtirok etganlar suhbatidan bahramand bo'lib, keyin qog'ozga tushiradi.

O'zbek ziyolilari kishanband, mahbus bo'ldi. Ularni kechalari Moskvaga olib ketganliklari, so'roq qilishlari, yo'q ayblarni bo'yniga majburlab qo'yishlari juda chiroyli, aziyatli tasvirlangan.

Bunga u yuksak fidoyilik qilib yerishdi. U endigina uylangan paytida Jahon adabiyoti institutiga o'qishga ketdi. Uning dardi o'qish bo'lmadi. U prokuraturada, sudda kunini o'tkazdi. U tanish-bilish yo'li bilan tergov matnlarini sotib oldi. Ikki og'iz axborot olish uchun "yarimta"lar qo'ydi. O'shanda yozilgan asarlari uchun O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Tog'ay Murodga "Oybek mukofoti"ni olib, uning puliga zindonlardan axborot to'pladi.

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani bosh qahramoni Dehqonqul obrazi bugungi kun o'zbek adabiyotida jiddiy voqea sifatida baholangan asar obrazi deb qaraldi.

Ana shu romani orqali Tog'ay Murod o'z so'zidan chiqdi. U "Otamdan qolgan dalalar" romani bilan "o'zbek xalqiga haykal qo'ydi".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tog'ay Murod "Otamdan qolgan dalalar". "Fan". Toshkent. 2001 y.

2. Parдаeva Manzura, Til va adabiyot jurnali. 2004 yil, 1-son.
3. Parдаeva Zulfiya, Til va adabiyot jurnali 2001 yil, 1-son.
4. Mirzaev S. XX asr o'zbek adabiyoti. Toshkent, 2005 y.